

**TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASHNING
PEDAGOGIK MUAMMOLAR**

**Ro'ziboyeva Zarnigor
Mirzakarimova Nilufar**

Xo'jaobod tumani maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'limning dolzarb pedagogik muammolari, kadrlar tayyorlash tizimining asosi bo'lgan uzluksiz ta'lim tushunchasi, ta'limni rivojlantirish asosida kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash haqida to'liq fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: modernizatsiyalash, uzluksiz ta'lim, ta'lim tizimining turlari, deferensiyalsh, pedagogik muammolar, didaktik materiallar, ilmiy-badiiy adabiyot.

Ma'lumki, mamlakatimizda barcha joylarda "Modernizatsiyalash" jarayoni ham ta'lim tizimiga bog'liqdir. Ularning orasida ayniqsa kadrlarni tayyorlashning hozirgi vaqt talab-istaklariga o'xshash ravishda amalga oshirish hozirgi davr talabi hisoblanadi. Yosh kadrlarni ta'lim va kasb tayyorgarligini yanada takomillashtirish, ularni ixtisoslik va mutaxassislikka aloqador fanlarni chuqur o'rganish orqali o'quvchi-talabalarning bilimlari va ko'nikmalari, malakalari kabi pedagogik muammolar mavzusiga doir masalalarga diqqat e'tibor qaratilini kelinmoqda. Shuningdek, hozirda uzluksiz ta'lim tizmi ham mavjud. Bu ta'lim kadrlar tayyorlashning asosi hisoblanadi va ushbu ta'lim kadrlar tayyorlashning asosiy muammolarini hal etish, davlat ta'limining standartlari, ta'lim tizimining hamma turlarini va uning ish yuritish muhitini tashkil qiladi. Shuningdek, uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlashning pedagogik muammolarini hal etadigan tizimning asosi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy tomondan rivojlanishini qondirib beruvchi, ijodkor va jamiyatning, ijtimoiy, ilmiy va madaniy tarafdin zarur shart-sharoitlarini ta'minlovchi tizim bo'lib, shaxs ijtimoiy faol, ilmiy va bilim tomondan boy insonning rivojlanishi va yuksalishi baland darajadagi malakali raqobatbardosh kadrlarning tubdan tayyorlanishi uchun zarur imkoniyatlarini yaratadi. Uzluksiz ta'lim tizimi bu insonning har tomondan rivojlanishi uchun qulay davr hisoblanadi. Ushbu davrda shaxs turli xil fanlarni va kasbiy hunar asoslarini chuqur o'rganadi, yuqori darajadagi ma'naviy va axloqiy fazilatlariga ega shaxs, kadr sifatida yuksaladi. Muayyan davrda o'zining mukammal dunyoqarashi shakllanib boradi. Ta'lim borasida O'zbekiston Respublikasining asosiy tamoyillari O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida o'z aksini topadi. Ta'limni modernizatsiyalash asosida kadrlar tayyorlashning asosiy ma'no-mazmunli bilish uchun avval ushbu milliy dasturni qabul qilishga qanday sabablar turtki bo'lganligini tahlil qilish va 1997-yilgacha bo'lgan barcha ta'limislohotlarining muammolari va kamchiliklarini ko'rib chiqish zarur. Ta'limni modernizatsiyalash asosida kadrlar tayyorlashning pedagogik muammolar quyidagilardan iborat:



- □ushbu kadrlarni tayyorlashning tizimi bozor iqtisodiyoti va demokratik tomondan talablariga mos kelmasligi;
- □o'quv jarayoni davomida axborot informatsiya va moddiy tarafdin texnika yetishmasligi, yuqori malakadagi pedagogik kadrlarning kamligi;
- □didaktik materiallar hamda ilmiy-badiiy adabiyot va sifatli o'quv-uslubiy adabiyotlarning yetarli emasligi;
- □yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta'lim sohasi jamiyatda sodir bo'layotgan islohot, o'zgarish jarayonlari talablari bilan uzviy bog'liq emasligi;
- □fan va ishlab chiqarish, ta'lim tizimi orasidagi puxta o'ylangan o'zaro kelishuv hamda foydali integratsiyaning mavjud emasligi.

Kadrlarning malakalarini qayta tayyorlash va yangilash jarayonida muhim diqqat e'tibor kadrlarning bilim ko'nikmalarini o'zgartirish va yanada chuqurlashtirishga qaratiladi. Ular malakasini qayta tayyorlash va oshirish ushbu sohada ish olib boruvchi ta'lim maskanlarida amalga oshiriladi. Ana shu maskan o'qish natijalariga ko'ra ular davlat tomonidan belgilangan sertifikat yoki guvohnomaga ega bo'ladilar. Shuningdek, kadrlar tarbiyalash va o'qitish mustaqillik yutuqlari, millatning boy ma'naviy, milliy va yuqori salohiyati, umrboqiy qadriyatlarga suyangan, vatanparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning mohiyati mamlakat ta'lim prinsiplari yordamida amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchining mutaxassisga, bunda bilim va ta'limlarga bo'lgan qiziqishini oshirishga, erkin ish yuritishni, shaxsiy qadr-qimmat xislati va iftixor tuyg'usini rivojlantirishga alohida diqqat qaratiladi. Ta'limni modernizatsiyalash asosida kadrlar tayyorlashning pedagogik kadrlarning obro', ma'suliyati, ularning kasb ko'nikmasi va e'tiborini yuksaltirish borasidan sobitqadam mamlakat tizimi yuritiladi. Malakali pedagogik ta'limning yangicha tizim va shakllari texnologiyalar, o'quv va differensiyalashgan dasturlar amaliyotiga tadbiq etiladi. Mavjud bo'lgan ta'lim-tarbiya islohotini butkul amalga oshirish, ularni zamonaviy tizimlar darajasiga ko'tarish, zamonaviy va milliy kadrlar tayyorlashning yangicha sohasini qurish, kelajak avlodni tarbiyalashning siyosiy huquqlari bo'lgan. Ta'limni modernizatsiya asosida kadrlar tayyorlash uchun unga asos sifatida doimiy talablarning jiddiy ravishda cheklanishi asosiy muammo sifatida qaratiladi. Ta'limni modernizatsiya har qanday qismining foydaliligi hamda, tejamkorlik, individual va tizimli rivojlanish, shuningdek, atrof muhitning sifati bilan baholanishni taklif qiladi. Ta'limni modernizatsiyalash asosida kadrlar tayyorlashning mana shunday ko'pgina asosiy pedagogik muammolari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"//Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: "Sharq nashriyot–matbaa konserni", 1997.
2. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.: "Fan", 2000.



3.Haydarova O.Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash.-T.:2004.

4.Safarova P.F.,Musayev U.Q. va boshq.Umumiy o'rta ta'lim mazmunini modernizatsiyalshning didaktik parametrlari.-T.:“Fan”,2008

5.G'ulomova N.D.Maxmudova va F.Quchqarova.Kasb-humar kolleji o'quvchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholashning ayrim masalalari.Ta'lim texnologiyalari jurnali,2012.

6.Munavvarov A.Pedagogika.O'quv qo'llanma.-T.:“O'qituvchi”1996.

